Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Bolalar nutqi ontogenezining neyrolingvistik asoslari

Sayyoraxon Sarvarbek qizi Qo’shaqboyeva*

Qo’qon davlat universiteti

✉ kushakboevas@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada bolalar nutqi ontogenezining rivojlanish bosqichlari, uning neyrolingvistik ahamiyati haqida so’z boradi

Kalit so‘zlar

neyrolingvistika, nutq shakllanishi, nutq buzilishi

DOI: 10.5281/zenodo.23278361

Inson nutqi murakkab psixik va ijtimoiy faoliyat shakli hisoblanib, u shunchaki so‘zlardan iborat bo‘lgan, muloqot ehtiyojinigina qondirish vazifasini bajaruvchi jarayon emas. Nutq shakllanishi bolaning go‘daklik davridan tortib individual rivojlanish (fiziologik, psixologik, kognitiv) jarayoni bilan bog‘liqlikda kechadi. Nutq ontogenezi esa inson hayotining ilk oylaridan boshlab nutq shaklanishi va unga xizmat qiluvchi omillar, shuningdek, nutqning qay tartibda paydo bo‘lishi kabi masalalarni nazarda tutadi. Nutq ontogenezining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu iyerarxik munosabatdir. Ya'ni, bola hayotining dastlabki davrida nutq hosil qilishni boshlar ekan, bu jarayon yildan yilga takomillashib, rivojlanib boradi. Bu esa bolaning tashqi muhit bilan aloqa o‘rnata boshlashi, ijtimoiy muhit va albatta, kognitiv va psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bundan kelib chiqadiki, ontogenez faqat biologik omillar bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda markaziy ner tizimining funksional rivojlanishi, bolada kognitiv faoliyatning shakllanishi, his qilish- sezgi organlari faoliyati va albatta, ijtimoiy ta'sirlar barchasi chambarchas bog‘liqlikda kechadi. Ayni sababdan nutq ontogenezi faqat lingvistik jihatdan emas, psixologik, biologik va sotsiologik jihatdan ham tahlil qilinadi.

Chunki nutq shakllanishida bosh miya faoliyati, eshitish va korish faoliyati, xotira, diqqat va shu kabi muhim kognitiv jarayonlarning o‘zaro bog‘liqlikdagi faoliyati muhim hisoblanadi.

Nutq tug‘ma qobiliyat emas, kattalar tomonidan avval eshitib qabul qilinadigan va shu orqali hosil boladigan tajribaviy jarayon hisoblanadi. Nutqning shakllanishi nutqiy tajribaga, nutqiy muhitga va ta'lim- tarbiyaga bog‘liq.[1] Bu borada ko‘plab qarashlar mavjud bo‘lib, sharq allomasi Kaykovusning “Qobusnoma” sida ham bola nutq chiqarishi uchun avval uni tinglashi kerakligi haqidagi fikrlar yozib qoldirilgan.[2] Bu qarash nutq shakllanishida eshitish va muloqotning o‘rni muhim ekanligini korsatadi.

Nutq rivojlanishi masalasi L.S.Vigotskiy, A. A. Leontyev, A. N. Gvozdev kabi olimlarning ishlarida ham izohlangan. Vigotskiy bola nutq paydo qilishida avvalo tashqi axborot qabul qilshini, eshitganlarini tahlil qilib, qayta ishlab keyingina o‘zi mustaqil nutq hosil qilishini aytadi. J. Piaje esa nutq rivojlanishini bolaning kognitiv qobiliyatlariga bog‘laydi, bolada avval ichki nutq paydo boladi, vaqt o‘tishi bilan u tashqi nutqqa aylanishini izohlaydi. [3] Vigostkiy va Piaje qarashlari bir-birini inkor etgandek tuyilsa-da har ikkisining ham tubida nutq hosil bo‘lishida bolaning umumiy psixik va kognitiv rivojlanishdan ayro tasavvur qilib bo‘lmas ligini va bu

ichki nutq shakllanishining bosqichlaridan biri sifatida izohlaydi. Bu ikki yondashuv bir-бирини inkor etmaydi, ular o‘zaro bog‘liq tarzda neyrolingvistik tadqiqotlarda ichki nutq mexanizmalrini tushuntirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Leontyev fikricha nutq rivojlanishi kognitiv jarayonlar bilan uzviy bolib, uni tahlil qilish psixolingvistik yondashuvni talab qiladi.[4]

Bolalar nutqi ontogenezi bir- birini taqozo etib, ketma-ketlikda shakllanadigan jarayon bo‘lib, Gvozdev bola hayotining qaysi davrida qanday so‘zlaydi, nutq paydo bo‘lishning ilk ko‘rinishlari qanday shakllanishini yoshga doir jadvallar misolida tushuntirib bergan. Unga ko‘ra bola yakka holdagi tovush va so‘zlarni o‘zlashtirar ekan, keyingi bosqichlarda murakkab birliklar, grammatik va sintaktik munosbatlari ham o‘zlashtira boradi. Normal holatda hammasi o‘z o‘rnida tartib bilan bosqichma bosqich amaga oshadi.

Anglashiladiki, bola nutqi birdaniga shakllanib qolmay, yillar davomida takomillashib, boyib boradigan izchil jarayon hisoblanadi.

Bolada nutq hosil bo‘lishi faqat ijtimoiy holatga bog‘liq bo‘libgina qolmaydi. Bunda bosh miyaning roli nihoyatda muhim. Kishi xatti harakatlaridan tortib to nutq hosil qilishigacha miyaning boshqaruvi bilan amalga oshadi. Miya tuzilishi, uning faoliyati necha yillardan beri tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. Bu sohada hali ochilmagan, kashf etilmagan yangiliklar bisyor ekanligi tobora anglashinib kelinmoqda.

Ko‘plab tadqiqotlar natijasida bola uch yoshgacha olamni anglashi, qabul qilishi va eshitganlari orqali axborot to‘plashi aniqlangan. Uch yoshdan keyin esa harakatlarni va nutqni tartibga solishga xizmat qiluvchi kortikal neyron tarmoqlarining ixtiyoriy nutqiy faoliyatni boshqarish bo‘yicha funksional yetilish davri boshlanadi.[5]

Bu o‘rinda miyaning uchta asosiy funksional bloki(apparati)ni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular ishtiroki har qanday aqliy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur.

1) ohang yoki hushyorlikni tartibga soluvchi blok. Bu blokning ishdan chiqishi bolada tez charchash, diqqatning yetishmasligi, eshitgan yoki oqigan matnini eslab qololmaslik va qayta hikoya qilib berolmaslik bilan xarakterlanadi. Yozuvda esa harflarni tushirib ketish bilan namoyon boladi;

2) tashqi dunyodan keladigan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash uchun blok. Bu qism oz ornida ishlamagmda bolada tovushlarni farqlolmaslik, harflarning shaklini esa koz oldoga keltira olmaslik holatlari kuzatiladi. Natijada oqishda ham yozishda ham bola jiddiy muammolarga duch keladi.

3) aqliy faoliyatni dasturlash, tartibga solish va nazorat qilish. Bu sohaning normal ishlamasligi bolada yozuv jarayonini boshqarolmaslik holati bilan kichadi. U nuqta va vergullarni qo‘ymaydi, kichik harflar orniga kattasini yoki aksincha, katta harflar ornga kichik yozib qoyyish holatlari kuzatiladi.

Bularning hammasi iyerarxik tuzilishga ega.

Luriyaning funksional bloklar nazariyasidan anglashiladiki, bolalar nutq ontogenezida nutqni qabul qilish, qayta ishlash va hosil qilish birgina markaz tomonidan emas, bir-biriga bog‘liq tarzda yuqoridagi bloklarning hammorlikdagi faoliyati natijasida amalga oshiriladi. Bu tizimdagi bir zonada uzilish bo‘lishi yoki soz ishlamasligi bolalarda turli korinishdagi og‘zaki va yozma nutq buzilishlariga olib keladi.

Luriya tomonidan ishlab chiqilgan neyropsixologik tamoyilga ko‘ra yuqorida sanalgan funksional tizimlar nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bolalar nutqini orprganishda muhim hisoblanadi. Axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonidagi qiyinchiliklar, tovushlarni angash va bir-biridan farqlash va fonemalarni grafema sifatida shakllantirishda xatoliklar, to‘xtalishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa yozma nutqda ham jiddiy kamchiliklarga olib keladi.

Kelib chiqadiki, og‘zaki va yozma nutq buzilishkarini faqat til materialining o‘ziga xosligi bilan emas, ularning uzluksizligini ta'minlovchi neyropsixologik jarayonlar bilan birga tahlil qilish o‘rinli hisoblanadi.

Yozma nutq bolaning oldindan shakllangan og‘zaki nutqi, fonologik qayta ishlash, xotira, diqqat kabi kognitiv jarayonlarning birgalikdagi faoliyati natijasida shakllanadi. Bolalar nutqi ontogenezining neyrolingvistik tahlili esa mazkur jarayonlarni to‘laqonli o‘rganishda muhim hisoblanadi. Shu sababdan disleksiya va disgrafiya lingvistik tahlil qilinayotganda o‘qish va yozishdagi xatolarni bir tomonlama izohlamay, mazkur xatolar negizidagi nutqiy va neyropsixologik mexanizmlarni aniqlash muhimdir.

Bu o‘rinda yozma nutqda tovushlarni farqlash, fonema va grafema munosabati, ularni yozuvda aks ettira

olish, izchillik va ketma-ketlikni tog‘ri ushlay olish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Bolalar nutqi ontogenezini neyrolingvistik jihatdan o‘rganish ayni og‘zaki va yozma nutq buzilishlari etiologiyasini tahlil qilishda dastlabki asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy neyrolingvistik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, nutq shakllanishi va uning turli darajada buzilishlarini tahlil qilishda biologik, psixologik, lingvistik va kognitiv omillarni yakka holda emas, yaxlit bir funksional tizim sifatida o‘rganish ijobiy natijaga tezroq erishishda qo‘l keladi. Bu esa kichik maktab yoshidagi bolalarda turli og‘zaki va yozma nutq buzilishlarni aniqlashda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ayupova M. Logopediya. Toshkent-2007
2. Kaykovus. Qobusnoma.-Toshkent: Istiqlol, 1994-B. 42.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь.- Москва: Лабиринт, 1999
4. Леонтьев А.А. *Избранные психологические произведения*. Москва: Педагогика, 1990.
5. Лурия .А. Р. Язык и сознание. Москва. 1979
6. Лурия А. Р «Основы нейропсихологии» Москва. 1973.